

Moskva davlat yer tuzish universiteti bilan hamkorlikda navbatdagi vebinar

Mutaxassislik kafedralarida xorijning nufuzli universitetlari bilan xalqaro hamkorliklarni kengaytirish, talabalar va professor-o'qituvchilarning sohaga oid bilimlarni yanada boyitish va xorij tajribalarini o'rgatish maqsadida Moskva davlat yer tuzish universiteti (MDETU) va TIQXMMI o'rtasida 2020-2021 o'quv yili uchun onlayn vebinarlarni o'tkazish rejasi tasdiqlangan.



2021-yil 9-aprel kuni "Yerdan foydalanish" kafedrasida MDETU bilan hamkorlikda navbatdagi vebinar tashkil etildi. Mazkur vebinarida Rossiya qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi muhbir a'zosi, i.f.d., professor Galchenko Svetlana Albertovna spikerlik qildi. Professor S.A. Galchenko "Kadastr hisobi va ro'yxatga olish mexanizmini takomillashtirish" mavzusida ma'ruza qildi va tinglovchilarni Rossiya tajribasi bilan tanishtirdi.



Vebinarida "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti professor-o'qituvchilari, bitiruvchi kurs talabalar va magistrantlar hamda "O'zdaverloyiha" institutida mutaxassislar ishtirok etishdi. Tinglovchilar vebinar yakunida o'zlarini qiziqtirgan savollariga javoblar olishdi va xorij tajribasi bilan fikr almashishdi.

TIQXMMI matbuot xizmati